

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2-jild, 1-son (yanvar, 2026-yil). – 80 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 8-yanvar

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Foziljonov Khojiakbar

KEY STAGES OF RECOVERY OF VISUAL INFORMATION FROM SIDE ELECTROMAGNETIC RADIATION VIDEO PATHS OF COMPUTING SYSTEMS 5-9

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASI SHAROITIDA

BUXORO VILOYATI SANOAT RIVOJLANISHI 10-13

Mamanov Muxammadamin

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TURIZM KORXONALARINI SAMARALI

BOSHQARISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 14-18

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA ERKINLIK VA XAVFSIZLIKNING ETIK CHEGARALARI 19-24

FILOLOGIYA FANLARI

Muzaffarov Javlon

UZUKLAR HUKMDORI" ROMANIDA ARXAIIK EPOS AN'ANALARI RIVOJI 25-27

Po'latova Lobar

O'ZBEKISTON MTRK AXBOROT DASTURLARIDA BOSHLOVCHINING NUTQ MADANIYATI VA

UNING AUDITORIYAGA TA'SIRI 28-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xomidjonov Abrorjon

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISH

STRATEGIYALARI 37-42

Buriyeva Sobira

YAPONIYADA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINI TAYYORLASH VA

QAYTA TAYYORLASH TIZIMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI 43-46

Nodirova Feruza

SHE'RIYATDA BADIY OBRAZNING O'ZIGA XOSLIGI

(Sa'dulla Hakim she'riyati misolida) 47-54

Sodiqova Gulnora

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA ISH BERUVCHILARNI KASBIY TA'LIM TIZIMIGA

JALB QILISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI 55-60

Arustamyan Yana, Toshpulatov Omonullokhon

DATA-DRIVEN MANAGEMENT AND MANAGEMENT INFORMATION SYSTEMS (MIS) IN

UZBEK HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-64

Djamilov Nurali

TARIX DARSLARIDA TARIXIY ATAMALARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK

TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 65-67

Abdullayeva Muyassar

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TA'LIM MUHITIGA MOSLASHUVIDA SOG'LIQNI

SAQLASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI 68-70

TIBBIYOT FANLARI

Hurmatmatova Nigina

ДЕМЕНЦИЯ: ЭТИОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

К РАННЕЙ ДИАГНОСТИКЕ 71-73

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATSIYA ORQALI AUDITORIYA BILAN

SAMARALI MULOQOT O'RNATISH 74-79

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TURIZM KORXONALARINI SAMARALI BOSHQARISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Mamanov Muxammadamin Qulmirza o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Turizm" kafedrası o'qituvchisi

Email: mukhammadaminmamanov@gmail.com

Tel: +998 919828232

ORCID: 0009-0009-0361-5231

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya jarayonida turizm korxonalarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida menejment tizimlari tubdan o'zgarib, korxonalar faoliyatida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishda PMS va CRM tizimlari, internet acquiring, big data hamda sun'iy intellekt kabi texnologiyalarning turizm korxonalarida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va global standartlar (UN Tourism, WTTC) asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning metodik yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Amaliy qismda O'zbekistondagi turizm korxonalarining raqamli transformatsiya jarayonidagi tajribasi o'rganilib, xizmat sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari turizm menejmentida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash va xalqaro integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, turizm korxonalari, samarali boshqaruv, PMS, CRM, big data, sun'iy intellekt, xalqaro standartlar, O'zbekiston turizmi.

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF TOURISM ENTERPRISES IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Mamanov Mukhammadamin

Lecturer at the Department of Tourism, Tashkent state university of oriental studies,
Tashkent, Uzbekistan

Annotation. This research examines the theoretical and practical foundations of effective management of tourism enterprises in the era of digital transformation. The study highlights how digital technologies reshape management systems and strengthen competitiveness in the tourism sector. Key tools such as Property Management Systems (PMS), Customer Relationship Management (CRM), internet acquiring, big data analytics, and artificial intelligence are analyzed for their role in improving efficiency and service quality. The theoretical section focuses on methodological approaches to tourism management, drawing on international experience and global standards promoted by organizations such as UN Tourism and the World Travel & Tourism Council (WTTC). The practical section investigates the experience of tourism enterprises in Uzbekistan, assessing their adaptation to digital transformation and identifying challenges and opportunities. The findings emphasize that the integration of digital technologies enhances innovation, service quality, and international competitiveness, providing strategic directions for sustainable development in tourism management.

Key words: Digital transformation, tourism enterprises, effective management, PMS, CRM, big data, artificial intelligence, international standards, Uzbekistan tourism.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i1/n03>

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot global miqyosda iqtisodiy tizimlarning transformatsiyasini belgilab beruvchi asosiy omilga aylandi. Turizm sohasi ham ushbu jarayondan chetda qolmay, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sifati,

boshqaruv samaradorligi va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga intilmoqda. Zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, turizm korxonalarini endilikda faqat an'anaviy boshqaruv mexanizmlariga tayanib qolmay, balki sun'iy intellekt, big data, bulutli yechimlar, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlari kabi innovatsion vositalardan keng foydalanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya turizm menejmentining yangi paradigmasi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon nafaqat texnologik modernizatsiyani, balki biznes modellarni qayta ko'rib chiqishni, mijozga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirishni va xizmatlarni personalizatsiya qilishni ham talab etadi. Xalqaro tashkilotlar – UN Tourism, WTTC va boshqa global institutlar – turizm raqamli boshqaruvni barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida e'tirof etmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda turizm korxonalarining raqamli transformatsiya jarayonlari endigina shakllanmoqda va ularni ilmiy-metodik asosda tahlil qilish, samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar berish zarur. Shu bois, ishning maqsadi raqamli iqtisodiyot davrida turizm korxonalarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, zamonaviy tendensiyalarni milliy tajriba bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar faoliyatini tubdan o'zgartiruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Xorijiy olimlar Buhalis va Law turizm raqamlashtirishni "xizmat ko'rsatishning yangi paradigmasi" sifatida baholab, mijozlar bilan o'zaro aloqani kuchaytirish va operatsion samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. [1; B.12.] Boshqa bir olim Gretzel esa "smart tourism" konsepsiyasini ilgari surib, big data, IoT va mobil texnologiyalar turizm menejmentining asosiy vositalariga aylanganini ko'rsatadi. [3; B.4.]

1-jadval

Turizm korxonalarini boshqarishda ilmiy-metodik yondashuvlar

No	Boshqaruv nazariyalari	Turizm qo'llanilishi	Taklif qilgan olimlar
1	<i>Samaradorlik nazariyasi</i>	Mehmonxona va turoperatorlik xizmatlarida resurslardan oqilona foydalanish, xizmat ko'rsatish tezligi va sifatini oshirish. Masalan, PMS tizimlari orqali xodimlar ishini avtomatlashtirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish. KPI (Key Performance Indicators) va benchmarking usullari orqali xizmat sifatini o'lchash va raqobatchilar bilan solishtirish.	Maykl Porter
2	<i>Innovatsion menejment</i>	Sun'iy intellekt asosida mijozlarga personalizatsiya qilingan takliflar, big data orqali marketing strategiyalarini optimallashtirish, mobil ilovalar orqali bronlash va to'lovlarni soddalashtirish	Jozef Shumpeter, Gretzel

3	<i>Mijozga yo'naltirilgan yondashuv</i>	CRM tizimlari orqali mijozlar ma'lumotlarini yig'ish, ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish va individual xizmat paketlarini ishlab chiqish. Personalizatsiya va "customer experience management" — mijozning butun sayohat jarayonidagi tajribasini boshqarish, sodiqlik dasturlari va onlayn fikr-mulohazalarni tahlil qilish	Filipp Kotler va boshqalar
4	<i>Xalqaro standartlarga asoslangan yondashuv</i>	Xizmat sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlash, global sertifikatlash tizimlariga qo'shilish. "Sustainable tourism" konsepsiyasi — raqamli yechimlar orqali energiya tejamkorligi, ekologik monitoring va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash.	

So'nggi yillarda O'zbekiston turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Butunjahon turizm tashkilotining 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, raqamli transformatsiya turizm korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida ko'rilmoqda. O'zbekistonda mehmonxona va turoperatorlik xizmatlarida PMS (Property Management Systems), CRM (Customer Relationship Management) va elektron to'lov tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. [6; B.11-12.]

O'zbekiston turizm sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari davlat siyosati va global tendensiyalar bilan uyg'un holda shakllanmoqda. So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi"da raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu jarayon turizm korxonalarining boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, xizmat sifatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan.

Raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari:

- Mehmonxona sektori: Yirik mehmonxonalar PMS (Property Management Systems) orqali bronlash, mijoz ma'lumotlarini boshqarish va moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirishni yo'lga qo'ygan. Bu xizmat tezligi va aniqligini oshirsa-da, kichik mehmonxonalar uchun texnologik xarajatlar muammo bo'lib qolmoqda.
- Turoperatorlik va OTA platformalari: Onlayn bronlash tizimlari (Booking, Expedia, Trip.com) bilan integratsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mahalliy turoperatorlar global tizimlarga qo'shilishda texnik va huquqiy to'siqlarga duch kelmoqda.
- Moliyaviy texnologiyalar: Internet blokcheyn va mobil to'lov tizimlari kengayib bormoqda. Bu jarayon mijozlar uchun qulaylik yaratmoqda, biroq xavfsizlik va huquqiy tartibga solish masalalari hali to'liq hal etilmagan.

- Marketing va mijoz tajribasi: CRM tizimlari orqali mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, sodiqlik dasturlarini joriy etish va xizmatlarni personalizatsiya qilish kengaymoqda.

Xorijiy olim Buhalis ta'kidlaganidek, turizm raqamli transformatsiya faqat texnologik modernizatsiya emas, balki biznes model va boshqaruv paradigmasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. O'zbekistondagi jarayonlar ham aynan shu yo'nalishda kechmoqda: korxonalar raqamli yechimlarni joriy etish orqali xizmat sifatini oshirish, mijoz tajribasini yaxshilash va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashga intilmoqda.

Samaradorlik mezonlari. Ilmiy adabiyotlarda turizm korxonalarining samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar taklif etiladi:

1. Xizmat sifati (Service Quality Index) – mijozlar qoniqish darajasi va xizmat tezligi.
2. Daromadlilik (Revenue per Available Room – RevPAR) – mehmonxona sektorida keng qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkich.
3. Mijoz sodiqligi (Customer Loyalty Index) – CRM tizimlari orqali qayta bronlash darajasi.
4. Operatsion tejamkorlik (Operational Efficiency Ratio) – resurslardan foydalanish samaradorligi.

Hozirgi raqamli transformatsiya jarayonida turizm sohasida ushbu yo'nalishda kuzatilayotgan amaliy tajribalar va muammolar sifatida quyidagilarni e'tirof etishimiz mumkin:

Mehmonxonalar tajribasi: Toshkent va Samarqanddagi yirik mehmonxonalar PMS tizimlari orqali bronlash va mijozlar ma'lumotlarini boshqarishni avtomatlashtirgan. Bu xizmat tezligini oshirgan bo'lsa-da, xodimlarning raqamli ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi muammo sifatida qayd etiladi.

Turoperatorlik faoliyati: Onlayn bronlash platformalari (OTA) orqali xizmat ko'rsatish kengaymoqda, biroq mahalliy korxonalar global tizimlarga integratsiya qilishda texnik va moliyaviy to'siqlarga duch kelmoqda.

Moliyaviy operatsiyalar: Internet acquiring va elektron to'lov tizimlari joriy etilgan bo'lsa-da, xavfsizlik va huquqiy tartibga solish masalalari hali to'liq hal etilmagan.

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston turizm sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, barqaror o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu davrda mamlakatga 10,7 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi (o'sish 114 foiz) va ularga 4,4 milliard AQSH dollari miqdorida turizm xizmatlari eksporti ko'rsatildi (o'sish 144 foiz). Bu ko'rsatkichlar turizm korxonalarining raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, xizmatlarni tezkor bronlash, elektron to'lovlar va onlayn marketing tizimlari orqali amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Joylashtirish vositalari soni ham sezilarli darajada oshdi: 954 ta yangi mehmonxona va turar joy faoliyati yo'lga qo'yilib, umumiy soni 6861 taga, o'rinlar soni esa 183,9 mingtaga yetdi. Bu raqamlar turizm infratuzilmasining kengayishi bilan birga, PMS tizimlari va elektron boshqaruv vositalarining joriy etilishi orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, 662 ta yangi turistik tashkilot va turagentliklar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning umumiy soni 4348 taga yetdi. Bu ko'rsatkich turizm xizmatlarining diversifikatsiyasi

va raqamli platformalar orqali mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirganini anglatadi. Kadrlar tayyorlash sohasida ham ijobiy natijalar qayd etildi: 4345 ta gid-ekskursovodlar faoliyat olib bormoqda, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida esa 375 nafar yangi gid-ekskursovodlar tayyorlandi. Bu jarayon raqamli ta'lim platformalari va onlayn kurslar orqali kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq. Investitsiya sohasida esa 421 ta loyiha amalga oshirilib, 6313 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bu jarayon turizm korxonalarining raqamli transformatsiya orqali investitsiya jalb qilish va yangi xizmatlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi. Keltirilgan statistik ma'lumotlar O'zbekistonda turizm sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat xizmat sifatini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma kengayishi va kadrlar tayyorlashda ham sezilarli natijalar berganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kadrlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, huquqiy bazani takomillashtirish va kichik korxonalar uchun texnologik xarajatlarni kamaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xalqaro standartlar (UN Tourism, WTTC) asosida barqarorlik tamoyillarini joriy etish esa turizm korxonalarining global raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. [7; B.8-9.]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya turizm korxonalarini samarali boshqarishning zamonaviy paradigmasiga aylandi. PMS, CRM, internet acquiring, big data va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar xizmat sifatini oshirish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish va mijoz tajribasini yaxshilashda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya turizm korxonalarida samarali boshqaruvni ta'minlash, xizmat sifatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro integratsiyani kuchaytirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Buhalis D. Technology in tourism: From IT to ICT to eTourism to Smart Tourism // Tourism Management. – 2019.
2. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management // Tourism Management. – 2008.
3. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. – 2015.
4. Kotler P., Bowen J., Makens J. Marketing for Hospitality and Tourism. – Pearson, 2017.
5. Li Y., Hu C., Huang C., Duan L. The concept of smart tourism in the context of tourism information services // Tourism Management. – 2018.
6. Parasuraman A., Zeithaml V., Berry L. SERVQUAL: A multiple-item scale formeasuring consumer perceptions of service quality // Journal of Retailing. – 1988. – №64(1). – P. 12–40.
7. WTTC. Transformative Technologies in Travel & Tourism. – London: World Travel & Tourism Council Report, 2025

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2-jild, 1-son (yanvar, 2026-yil). – 80 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 8-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.